
O'zbekiston-Belgiya: ilmiy hamkorlik

2021-yil 26-noyabr kuni Belgiyaning Luven katolik universiteti “Istiqbolli antropologiya” amaliy laboratoriyasida bo’lib o’tgan navbatdagi ilmiy seminar O’zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tadqiqotchilariga bag’ishlandi. Unda Institut tayanch doktoranti Zufar Qoryog’diyev “Buxoro lo’lilarining ijtimoiy hayoti va madaniyati ” (Social life and culture of Bukharian lyuli) mavzusida hamda tayanch doktorant Shavkat Bobojonov “Buxoro vohasi ziyorat turizmi obyektlarining tasnifi” (Classification of pilgrimage destinations in Bukhara oasis) mavzusida ingliz tilida ma’ruza qilishdi.



Belgiya, Kuba, Moldova, Xitoy hamda Afrika mintaqasi davlatlari tadqiqotchilari qatnashgan seminarda O’zbekiston tarixi va madaniyatiga doir, xususan, Buxoro lo’lilarining kelib chiqish tarixi, urf-odat va marosimlari, shuningdek, islom olamida ziyorat an’anasi, Buxoro ziyoratgohlarida bajariladigan odat va marosimlar, ziyoratgohlarning tasnifi va tavsifi, bugungi ziyorat turizmi jarayonlari xususida ma’lumot berildi. Buxoro lo’lilari hayotiga bag’ishlangan hujjatli film hamda Buxoroning ziyorat turizmi salohiyatiga bag’ishlangan ingliz tilidagi videolavha seminar ishtirokchilarida qiziqish uyg’otdi. Ilmiy seminar yakunida ishtirokchilar O’zbekistonning boy madaniyati, asriy qadriyatlari haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo’lganini ta’kidlab, O’zbekistonga borish va xalqimiz bilan yaqindan tanishish istagida ekanini bildirishdi.